Mashhura SHERALIYEVA

“Quroq” haqida olaquroq qaydlar

(Yozuvchi Ahmad A’zamga ochiq xat)

Hozir, “Quroq”ni o‘qib tugatgach, taassurotimni ifodalab berishga so‘z topolmay turgan paytimda bir narsa xayolimga keldi: asaringizni o‘qiyotgan odamni kuzatish imkoni bo‘lganmi Sizda? Afsuski, o‘qiyotgan paytimda yuzimda qanday ifoda bo‘lganini, nima deb xitob qilganimni, qaysi joyida miriqib kulganimni, qayerida xazin tortib qolganimni ko‘rganingiz yo‘q. Agar ko‘ra olganingizda, bular barchasi asaringizga berilgan chin baho bo‘lar edi... Siz kabi so‘z ustasi bo‘lganimda, nimalarni his qilganimu nimalar xayolimdan o‘tganini juda yaxshi ifodalab berolgan bo‘lar edim... Hozir yozayotganlarim esa olaquroq qaydlar, xolos...

Bu asar menga “Oyning gardishi”ni eslatdi. Eshak mingan bola, maktabning olmasidan o‘g‘irlab yeyishi, quloqcho‘zar muallim, otangiz... Yo‘q, buni o‘zingizni takrorlagansiz degan ma’noda aytmadim. To‘g‘rirog‘i, “Oyning gardishi”ning yaratilishida qaysi xotiralarga tayanganingizni bilib oldim demoqchiman. Shunday, bu mening kasb kasalim, asar (“Oyning gardishi”)ning ijodiy tarixini bilish istagi bilan bog‘liq. “Oyning gardishi” boshqa bir olam. “Quroq”ning yuki og‘irroqdek tuyuldi menga. Boshda shunchaki o‘yinqaroqlik bilan berilayotgan eshak haqidagi tasvirga asar oxiriga borib shunaqa jiddiy (hatto anchagina qaltis) mazmun yuklanishini, ochig‘i, kutmagandim. Ehtimol, boshqa bir odamda kutmagani sodir bo‘lganligi o‘zgacha taassurot uyg‘otar. Lekin men shundan keyin yana ortga qaradim: barcha xotiralarni birlashtiradigan, ularga umumiy bir ruh beradigan narsani yaqqolroq his qildim. Kutmagandim deyishim ham aslida unchalik to‘g‘ri bo‘lmas. Asarning boshlanishida,sinfdoshlarimning gaplarida menga ta’na bor edi, deganingizdayoq keyingi xotiralarni shunga mos tushunish, his qilishga tayyorlanganman (albatta, o‘zim sezib-sezmay). Keyin ham ora-orada o‘sha umumiy ruh, kayfiyatga kelib bog‘lanayotgan iplarni sezib turdim. Biroq aynan eshak obraziga shunaqa jiddiy mazmun, shunaqa og‘ir yuk

ortishingizni kutmagandim. Chunki bu shunchaki bir eshak, bolaligingizda minib yurgan, xotiralaringizdagi bir detal edi, xolos-da, men uchun.

...Ey Xudoyim, qachon bunaqa kulgandim-a?!! Yo‘q, meni bunaqa kuldirgan joyini ko‘chirma qilib keltirolmayman, mana bu joyi deb ham aytolmayman, yo‘q...

“Shu chopishim bir umrlik ekan, bir umr odamlar orasida yashab, bir umrki ularga tomon yuguraman”. Yolg‘izlik haqida aytganlaringiz odamni o‘ylantiradi. Yuz yil, ming yildan beri yolg‘izlikdan qochib qutulolmadim, yo‘q, qancha o‘ylasam ham, sababini, oxirini, nimaligini o‘ylab, ming bor tahlildan o‘tkazsam ham undan qutulolmadim... Ehtimol ana shu o‘ylovlar jarayonining o‘zi meni odamlardan uzoqlatib, yanayam yolg‘izlatib qo‘yayotgandir...

Hashar sahnasi ko‘p narsani ochib beradi. Hamqishloqlarni yashab turgan hayotidan uyalishga majbur qilgansiz, bunda sizning aybingiz yo‘q, lekin turish-turmushingizning o‘zi shuni ta’kidlab turaveradi. O‘z hayotidan qoniqmasliklari kerakligiga ishora qilib turaveradi. Chiqib ketgan odamning faqat o‘zi emas, hamqishloqlari ham o‘zgaradi. O‘zingdagi o‘zgarishni yengib qishloqqa borsang ham, ulardagi o‘zgarishni yengolmaysan, nedir qayta uyg‘unlikka yo‘l bermaydi. Mana shu o‘zinikilarga begonalik, yolg‘izlik kayfiyati qishloqdan shaharga kelib qolgan yolg‘iz odamlarni birlashtiradigan kayfiyatmikan, degan o‘ylarga boraman...

Begonasiratgan narsa, nima o‘zi shu? O‘zing ham kechagina ularning biri eding, qishloqdagi shu turish-turmushni tabiiy deb bilarding. Endi esa bunga hech o‘zgarmasligi kerak narsa deb qarayolmaysan. Shunday qarayolmasligingni sezishadi, sening ko‘zing bilan o‘z hayotlariga qarash yoqmaydi, sen tufayli o‘z turmushini me’yorga zid holat deb qarash birovga yoqarmidi? Odamlardan oldinlab ketish ham begonasiratadi, yolg‘izlatadi. Qiziq...Yo‘q, odamga alam qiladi: dardini o‘zingniki deb bilganlaring sendan begonasirashadi, turish-turmushing o‘zgargani bilan iching, ruhing, ko‘ngling o‘zgarmaganini sezishmaydimi?

Yozganlarimni o‘qib dadam hamisha “tanqid qilmabsan, yaxshi qilibsan”, deydilar. Meni atayin tanqid qilmaslikka harakat qiladi, deb o‘ylasalar kerak. Aslida esa doim asarni bir butun holida ko‘rishga, qabul qilishga intilaman. Har qanday

asarning qaysidir qismi, epizodi, obraz talqini kimdir boshqa birovda tanqidiy fikr uyg‘otar. Lekin men o‘zimga yoqqan asarning har bir qismi, epizodi, obrazlari, uslubi... va boshqa barcha jihatlarini bir butunlikda his qilish, anglashga uringanim uchun tanqid faqat o‘zimga nisbatan bo‘lishi mumkin. Chunki asarning o‘zim yaxshi anglamagan jihatini ayb qilib yozuvchining zimmasiga yuklasam bo‘lmaydi.

“Quroq”da, masalan, asarning yarmigacha voqealar tafsilotlari keng berilgan, yarmidan o‘tgach xotiralar tig‘izlashibroq boradi, tafsilotlar kamayadi. Bu o‘zgarish har kimga har xil ta’sir qilishi mumkin. Men uchun esa bu holat ham tabiiy. Odatda eski tanishlar uchrashib qolganida shunaqa bo‘ladi: avvaliga voqealarni tafsilotlari bilan birgalikda eslanadi, keyin har kim esiga tushganini bir-bir aytadiyu tafsilotlarga hojat qolmaydi, ozgina ishora bilan ko‘-o‘-o‘p narsalar xotiraga kelaveradi...

“Quroq”dan kelib chiqadigan asosiy gapni aytolganim yo‘q. Buni ikki og‘iz gap bilan aytolmayman. Qishloqning, shu bir qishloq timsolida, misolida o‘zbekning, millatning, xalqning DARDi o‘zgacha bir yo‘sinda ifodasini topibdi. Talqin ham boshqacha, lekin to‘g‘ri talqin, o‘z bolaligi bilan, o‘zining chin xotiralari bilan dalil keltirib turgan odamga e’tiroz yo‘q.Dalil keltirayotganingiz uchun faqat sizga e’tirozim yo‘q, desam to‘g‘ri bo‘lmaydi. Xotiralaringiz meniyam ortga qarashga majbur qildi, o‘zim ko‘rgan-bilganlarimga ham boshqacha qarashga undadi. Agar e’tiroz qilmoqchi bo‘lsam, sizgagina emas, o‘zimga, o‘zimning bilganlarimga ham qarshi chiqishim kerak bo‘ladi. Bu esa mumkin emas. Boshqa odam yozganida, ehtimol, ko‘p yig‘latgan bo‘lardi, lekin siz yozganingiz ilojsiz holat haqidagisi ham odamga qanaqadir kuch beradi, odamning yolg‘iz emasligini eslatib turadi.

Asarning tili juda ajoyib. Menga juda yoqqanini his qilib turibmanu lekin ta’riflab aytib berishim qiyin. “Quroq”ning tili juda ravon, erkin. Xotiralar biri ikkinchisiga zanjir bo‘lib bog‘lanib ketgan. Bir voqeada eslangan detal boshqa xotirani tabiiy ravishda yetaklab kelyapti. “Quroq” bilan Oybekning “Bolalig”i, A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”i, G‘.G‘ulomning “Shum bola”si o‘rtasida umumiyliklar ko‘ryapman (buni aslo takror deb tushunmang, yana kasb kasalim boshlandi). Bu umumiylik, avvalo, bolalik haqida asar yozishdagi shaxsiy, psixologik ehtiyoj bilan bog‘liq. Yana nimalarnidir aytmoqchi bo‘lyapman-u, lekin gaplarim o‘ta ilmiylashib, quruqlashib ketmasin. Har holda, bir narsani aniq aytishim kerak –

men “Quroq”da Oybek, A.Qahhor, G‘.G‘ulomniki kabi avtobiografik xarakterdagi qissani ko‘rdim.

Xullas, juda maza qilib, zavq bilan o‘qidim. Bu zavq uchun sizga katta rahmat, Ahmad aka!